

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyni ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globalashuv jarayonlarining O'zbekistondagi mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari.....	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari.....	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'naviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati.....	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



UO'K 331.7:378 (575.1)

KUCHLI IJTIMOY SIYOSAT VA MA'NAVIY TARBIYA STRATEGIYASI

СИЛЬНАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА И СТРАТЕГИЯ ДУХОВНОГО ВОСПИТАНИЯ

STRONG SOCIAL POLICY AND SPIRITUAL EDUCATION STRATEGY

Ahmedova O'g'ilxon Nomozovna Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi v.b.dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotasiya**

Mazkur maqolada bugungi shiddatli zamon sharoitidan kelib chiqib, dunyoda ta'lim va tarbiyaga e'tibor kuchayib borayotgani kuchli ijtimoiy siyosatning strategik talabi ekanligi tadqiq etilgan. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta'lim-tarbiya masalasiga e'tibor yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu esa ma'naviy tarbiya strategiyasining natijadorligiga erishish samaradorligini ko'rsatadi.

Аннотация

В данной статье исследуется, что в условиях нынешнего напряженного времени повышенное внимание к образованию и воспитанию в мире является стратегическим требованием сильной социальной политики. На новом этапе развития Узбекистана внимание к вопросам образования и воспитания выходит на новый уровень. Это свидетельствует об эффективности реализации стратегии духовного воспитания.

Abstract

This article explores the fact that the emphasis on education and upbringing in the world is a strategic requirement for a strong social policy, due to the conditions of today's turbulent times. At a new stage of development of Uzbekistan, attention to the issue of education is taking a new level. This shows the effectiveness of achieving the consequentiality of the spiritual education strategy.

Kalit so'zlar: Kuchli ijtimoiy siyosat, ma'naviyat, tarbiya, strategiya, siyosat, uzliksiz ta'lim, ijtimoiy siyosat.

Ключевые слова: Сильная социальная политика, духовность, воспитание, стратегия, политика, непрерывное образование, социальная политика.

Key words: Strong social policy, spirituality, upbringing, strategy, politics, education without interruption, social policy.

KIRISH

Jamiyatdagi mavjud jarayonlarni o'z davri va bosqichlarida yuksalishi shaxs ma'naviy qiyofasiga bevosita bog'liqdir. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan tarbiyaning eng muhim muammolaridan biri bu shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi muammosidir. Shuning uchun ham O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapdi"[1.267.], deb ta'kidlaydi. Bu esa yoshlar tarbiyasida ma'naviy tarbiya asosiy vosita sifatida ularni shaxsiyatini shakllantirish jarayoni sodir bo'ladigan muhitni yaratish uchun muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning aniq manzilli xususiyatga ega ekani har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojini hisobga olgan holda yordam ko'rsatish imkonini bermokda. Bunda ushbu toifaga mansub hech bir inson e'tibordan chetda qolmasligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu asosda jamiyatimizning ijtimoiy manzarasi butunlay o'zgarmoqda, samarali boshqaruvning natijadorligi oshmoqda, eng muhimi, odamlarning hayotga, mehnatga, o'zining taqdiri va ertangi kunga ishonchi ortmoqda. Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning mutlaqo yangi va o'ziga xos tizimi yaratildi. Keyingi paytda "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari", "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda. Shu asosda muammoga oid mavhum ko'rsatkichlar emas, balki yordam va ko'makka muhtoj har bir oila va fuqaroning, xotin-qizlar, yoshlarning muammolari o'z joyida aniq o'rganilmoqda, ular vaqtida va samarali hal

etilmoqda. Bugungi kunda xalq farovonligini, odamlarning hayot darajasini har tomonlama oshirish, buning uchun yangi ish o'rinlari, daromad manbalarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish, qishloq va shaharlarimizni obod qilish iqtisodiy strategiyamizning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Keksalar, nogironlar, og'ir ahvolga tushib qolgan insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga mehr va muruvvat ko'rsatish kabi ezgu an'analar bugungi kunda yangicha ma'no-mazmun, amaliy harakatlar bilan boyib, takomillashib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yosh tadqiqotchi olimlar, "Hozir bu ish o'zining oddiydan murakkabga qarab borish, ilmiy asosga tayanish, hayot bilan chambarchas aloqadorlik, uzviylik, tezkorlik, estetik elementlarga, milliy istiqlol g'oyasiga tayanish, nazariya va amaliyot birligi, o'zbek xarakteriga xos sifatlarni inobatga olish, tushunarliklik, tarbiyalash, tizimlilik, ko'rgazmalilik, ko'rsatmalilik va boshqa tamoyillarga ega"[2.24.], bo'lishi zarurligini ta'kidlaydilar. Bizningcha, ma'naviy tarbiya strategiyasining vositalari yuqorida ta'kidlanganidek, ilmiy asoslarga tayanish zarur.

"Ma'naviy jarayonlar transformatsiyasi murakkab ma'naviy-axloqiy voqelikni, inson sadoqatidan kelib chiqadigan asosiy qadriyatlarni yangilanishni ifoda etadi. Shuningdek, ma'naviyatning uch turi tahlil etilib, birinchi turini individual va shaxsiy fazilatlar bilan tavsiflanadigan aql-idrokka kiritish mumkinligi qayd etilgan. Aql-idrokning individual fazilatlar tabiiy muhitga moslashuvchan xarakterni, shaxsiy fazilatlar esa aqlni jamiyatga, aql rivojlanishining obektiv shartlariga, ta'limga, o'zini tutishning yuqori madaniyatiga moslashtirishni tavsiflashi keltirilgan. Ma'naviyatning ikkinchi turi ichki faollik va ruhiy holatlarning intensivligi, shaxs uchun ruhiy taranglikning doimiy namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ma'naviy holatlarning yuksak o'sish davrlarini va uning qo'llash davrlarini ajratish mumkin. Uchinchi turdagi ma'naviyat-psixologik erkinlik bilan tavsiflanishi, bu subektning tabiat va jamiyat rivojlanish qonuniyatlarini anglash asosida o'z xohish-irodasini namoyon etish imkoniyatini anglatish"[3.15.], zarurligini ta'kidlaydi. Bizningcha, bu jarayonning muhim jihati ikkita asosiy maqsadda namoyon bo'ladi, birinchidan, uning vazifasi jamiyat tomonidan yaratilgan madaniy qadriyatlarning bir qismini individuallashtirish, ikkinchidan, ma'naviy tarbiyaning vazifasi madaniy va estetik qadriyatlarni idrok etish uchun ma'lum qobiliyatlarni yaratishdir.

"Ma'naviy tarbiya – yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy etuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatdir"[4.318.]. Bizningcha, ma'naviy-axloqiy tarbiya muammosining dolzarbligi quyidagilar bilan bog'liq bo'lgan jarayondir:

Birinchidan, jamiyat yuksak ma'lumotli, yuksak ma'naviyatli, nafaqat bilim, balki mukammal shaxsiy fazilatlariga ega insonlarni tarbiyalashi zarur.

Ikkinchidan, zamonaviy dunyoda yoshlarning hali etuk bo'lmagan aql-zakovati va his-tuyg'ulari, axloqiga zid bo'lgan salbiy hislatlar ta'siridan xalos etish kerak.

Uchinchidan, ta'limda yuqori darajadagi axloqiy tarbiyaga e'tibor berish lozim, chunki tarbiya insonning kundalik xulq-atvorida uning boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini har bir shaxsga hurmat va xayrixohlik asosida belgilaydigan shaxsiy xususiyatdir.

To'rtinchidan esa ma'naviy-axloqiy ko'nikma bilan qurollanish muhim hisoblanadi. Bunda nafaqat zamonaviy jamiyatda tasdiqlangan xulq-atvor normalari, balki me'yorlarni buzish yoki bu harakatning atrofdegilar uchun oqibatlar haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish zarur.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlarni yoshlar qalbiga singdirishda ma'naviy tarbiya strategiyasining vositalari katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu bilan jamiyat a'zolarining, xususan, yoshlarni haqiqatparvarlik, ezgulik, toqatlilik, e'tiqodlilik, sabrllilik kabi abadiy insoniy qadriyatlarni puxta egallash ma'naviy tarbiyaning strategik maqsadini ifodalaydi. Bizningcha, bu jarayon ma'naviy tarbiya strategiyasining vositalarini izlash zarurligini taqozo etadi. Pirovard natijada tadqiqot maqsadi – "Kelajak odami"ni tarbiyalashga erishiladi. Bu borada dolzarb bo'lgan ma'naviy tarbiya strategiya zarurati haqida "...mamlakatimizda ma'naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarishimiz kerak"[1.287.]. Chunki O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ochiqlik, oshkoralik muhiti ta'sirida jamiyatdagi ma'naviy muhitning salbiy qirralari namoyon bo'lib qolmoqda. Unga qarshi faqat yangicha kurash usullari bilan qarshilik qila olish mumkin. Shaxsning ma'naviy olamiga ta'sir kuchining turfa xilligi yoshlardagi axloqiy tarbiyani ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va jamiyat

SIYOSAT

axloqiy turmush tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayon hisoblanadi. Bu xususan "Odam o'tanadan tug'iladi, ammo uning axloq-odob borasidagi fazilatlarini jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta'sirida shakllanadi"[5.3.], degan qarash naqadar to'g'ri ekanligini anglatadi. Jamiyatda ma'naviy tarbiya strategiyasi shaxsning butun hayotiy davri ma'naviy bosqichidagi rivojlanishining tizimli natijasidir. Bu esa jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarning mavjudligi va ularni yaratishda shaxsning ishtiroki bilan tavsiflanadi.

Bugun yoshlar va ayollar masalasi ham e'tibor markazida ekan, joylarda ularning faolligini oshirish, bandligini ta'minlash, salomatligini mustahkamlash masalalari ham muhim ahamiyatga egadir. Kitobda bevosita ayni mana shu jihat alohida ta'kidlangan. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya va yangi imkoniyatlar xususida ham vazifalarning berilganligi yurt ravnaqi va kelajagi uchun, yoshlarning ko'proq bilim olishlari, muhimi, taraqqiyot uchun e'tiborlidir. Albatta, ta'limda ham sezilarli ravishda o'zgarishlar kuzatildi. Maktab degan buyuk dargohdan boshlab oliy ta'lim tizimigacha o'zgarishlar bo'ldi. Yoshlar uchun keng ko'lami ishlar amalga oshirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish, baholash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlab, ularning aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish va zarur maqsadli va manzilli tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini aniqlash va manzilli sog'lomlashtirish metodikasi" hamda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi" asosida amalga oshirilayotgan strategik o'zgarishlarni misol qilib keltirish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati haqida so'z bordi. Mazkur yig'ilishda Davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasi, odob-axloqi haqida to'xtalib, "Maktab - bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Bu masalani davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi"[6.],- deya alohida ta'kidladi.

"Bolalar axloq tarbiyasini oldinroq o'zi yashayotgan atrof muhit va ko'chadagi bolalardan oladilar. Bolalar suvga o'xshaydilar suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar o'sha muhitning ham shunday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon axloqni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchidan qabul qiladilar" [7.56.]. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiya murakkab jarayon bo'lib, bu ishda mahalla, oila, maktab va jamoa tashkilotlarining birgalikdagi faoliyati samara berishi bilan ifodalanadi. Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta'limdan bo'sh vaqtida amalga oshiriladigan qo'shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo'lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta'lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi. Tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

XULOSA

Ma'naviy tarbiya strategiyasining vositasi sifatida qaraladigan maktab tizimining tarbiya jarayoni o'z ichiga ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr - 7(6)-10 yoshli davrda - boshlang'ich sinflarda;

ikkinchi davr - 11-17 yoshli davrda - o'rta va yuqori sinflarda, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari o'quvchilarda yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar - Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantiriladi"[8.], deb belgilab qo'yildi. Bu esa yoshlarni asosiy ma'naviy tarbiyasini shakllantirish vositasi ekanligini bildiradi. Ijtimoiy siyosatning mazmuni tarbiya jarayonlarini strategik rejalashtirish maqsadlarini amalga oshirish vositasi bo'la oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон. 2022.
2. Бозоров О. Миллий ғоя ва тарғибот самарадорлиги. –Тошкент: Маънавият. 2018.
3. Шарипов А.З. Янги Ўзбекистонда маънавий-мафкуравий ислохотлар трансформatsiясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фан доктори (DSc) диссертatsiяси автореферати. Бухоро. 2021.
4. Маънавият: асосий тушунчалар. Изоҳли луғат. Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент, 2010.
5. Юсупов Э. Маънавий камолот омиллари. –Тошкент: Университет, 1995.
6. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya--bu-bizning-kelajagimiz-hayot-mamot-masalasi--shavkat-mirziyoev>
7. Фитрат. А. “Раҳбари нажот” асаридан. “Ўзбек педагогикаси антологияси”. 2-жилд. Тошкент. Ўқитувчи. 1999.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси www.lex.uz.